



2023- yil yanvar-aprel oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **285,9 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **6,1 mln. AQSH** dollariga yoki **2,2 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023-y.: **285,9** +2,2 %

(2022-y.: **279,8**)



Saldo

2023-y.: - **43,2** (2022 y.: - **95,0**)



### Eksport

2023-y.: **121,3** +31,3 %

(2022-y.: **92,4**)



Tovarlar: **120,2**



Xizmatlar: **1,1**



### Import

2023-y.: **164,6** -12,2 %

(2022-y.: **187,4**)




Tovarlar: **164,6**



Xizmatlar: -






**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **121,3** mln. AQSH dollariga (**31,3** % ga ko‘paydi) va import hajmi **164,6** mln. AQSH dollariga (**12,2** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida - **43,2** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Rossiya	XXR	Afg‘oniston	Qozog‘iston	Turkiya
TSA – 39,1	TSA – 45,3	TSA – 62,6	TSA – 95,5	TSA – 14,0
Eksport: 15,9 Import: 23,2	Eksport: 13,7 Import: 31,6	Eksport: 62,6 Import: 0,0	Eksport: 10,3 Import: 85,2	Eksport: 8,1 Import: 5,9
 13,7%	 15,9%	 21,9%	 33,5%	 4,9%

Sirdaryo viloyati jahonning **63** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**13,7 %**), XXRda (**15,9 %**), Afgʻonistonda (**21,9 %**), Qozogʻistonda (**33,5 %**), Turkiyada (**4,9 %**) va Koreya Respublikasida (**0,2 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Afgʻoniston, Qirgʻiz Respublikasi va Qozogʻiston kabi qoʻshni davlatlar bilan TSAda soʻnggi yillarda katta oʻzgarishlar kuzatilmoqda.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BOʻLGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Afgʻoniston – 62,6



Qozogʻiston – 95,5



Qirgʻiz Respublikasi – 3,1











Tashqi iqtisodiy faoliyat boʻyicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afgʻoniston, Turkiya, Pokiston, Tojikiston va Rossiya davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **15** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.













## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Rossiya</b>	<b>59,4</b>	<b>25,9</b>	<b>39,1</b>
 <i>Eksport</i>	14,4	14,4	15,9
<i>Import</i>	52,6	11,5	23,2
<b>XXR</b>	<b>27,5</b>	<b>49,3</b>	<b>45,3</b>
 <i>Eksport</i>	14,4	21,0	13,7
<i>Import</i>	27,5	28,3	31,6
<b>Germaniya</b>	<b>6,1</b>	<b>3,2</b>	<b>1,9</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	0,0
<i>Import</i>	6,1	3,2	1,9
<b>Qozog'iston</b>	<b>40,0</b>	<b>92,2</b>	<b>95,5</b>
 <i>Eksport</i>	4,6	4,5	10,3
<i>Import</i>	47,9	87,7	85,2
<b>Turkiya</b>	<b>6,8</b>	<b>14,1</b>	<b>14,0</b>
 <i>Eksport</i>	3,1	8,1	8,1
<i>Import</i>	3,7	5,9	5,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1,0</b>	<b>6,6</b>	<b>0,6</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,0	6,6	0,6
<b>Litva</b>	<b>0,1</b>	<b>0,7</b>	<b>0,0</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	0,0
<i>Import</i>	0,1	0,7	0,0
<b>Fransiya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,4</b>	<b>1,1</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,1	0,4	1,1

Davomi

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 <b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>1,9</b>	<b>3,3</b>	<b>3,1</b>
<i>Eksport</i>	1,7	0,7	0,8
<i>Import</i>	0,2	2,6	2,3
 <b>Afg'oniston</b>	<b>28,4</b>	<b>34,8</b>	<b>62,6</b>
<i>Eksport</i>	28,4	33,7	62,6
<i>Import</i>	-	1,1	0,0
 <b>Belarus</b>	<b>0,2</b>	<b>0,6</b>	<b>0,5</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,2
<i>Import</i>	0,2	0,4	0,3
 <b>Hindiston</b>	<b>0,2</b>	<b>0,6</b>	<b>0,4</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,2	0,6	0,4
 <b>BAA</b>	<b>0,0</b>	<b>0,3</b>	<b>0,0</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,3	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 <b>Tojikiston</b>	<b>0,7</b>	<b>17,2</b>	<b>3,1</b>
<i>Eksport</i>	0,6	4,6	2,4
<i>Import</i>	0,1	12,6	0,7
 <b>Eron</b>	<b>0,0</b>	<b>3,0</b>	<b>1,2</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,7	0,6
<i>Import</i>	0,0	2,3	0,6
 <b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,1</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 <b>Italiya</b>	<b>0,8</b>	<b>0,0</b>	<b>3,2</b>
<i>Eksport</i>	-	-	0,0
<i>Import</i>	0,8	0,0	3,2
 <b>Polsha</b>	<b>0,3</b>	<b>0,2</b>	<b>1,1</b>
<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,8
<i>Import</i>	0,0	0,2	0,3



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>285,9</b>	<b>102,2</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	22,8	139,2	8,0
Guliston t.	4,8	59,3	1,7
Mirzaobod t.	9,8	88,3	3,4
Oqoltin t.	2,1	102,5	0,7
Sardoba t.	2,2	60,8	0,8
Sayxunobod t.	18,1	82,9	6,3
Sirdaryo t.	82,2	74,0	28,8
Xovos t.	19,6	258,0	6,9
Guliston sh.	23,2	76,4	8,1
Shirin sh.	0,5	105,7	0,2
Yangiyer sh.	100,2	149,5	35,0

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari




Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **35,0 %** ulush bilan **100,2** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,2 %** ulush bilan **0,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **49,8** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,8** % ga ko'paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,8** % ga kamayib va jami TSAdagi ulushi **50,2** % ni tashkil etdi.



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, **142,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **30,6** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **111,8** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 39,1  
Eksport – 15,9  
Import – 23,2



### Qozog'iston

TSA – 95,5  
Eksport – 10,3  
Import – 85,2



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 3,1  
Eksport – 0,8  
Import – 2,3



### Belarus

TSA – 0,5  
Eksport – 0,2  
Import – 0,3



### Tojikiston

TSA – 3,1  
Eksport – 2,4  
Import – 0,7



### Ukraina


TSA – 0,4  
Eksport – 0,4  
Import – 0,0




Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**13,7 %**), Qozog'iston (**33,5 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**1,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **138,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **27,2** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **111,0** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

**export** →


## SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **126** taga yetdi va ular tomonidan **121,3** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **131,3** % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi % da)



Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo‘yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>92,4</b>	<b>121,3</b>	<b>126,1</b>	<b>131,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,6	72,3	108,4	182,5	42,9	59,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,7	2,7	78,5	57,7	5,0	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	12,5 m.	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	0,0	0,0	9,2	0,8	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,3	3,0	3,7 m.	92,5	3,5	2,5
Sanoat tovarlari	34,7	33,5	167,5	96,5	37,5	27,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,6	1,7	122,3	107,8	1,7	1,4
Turli xil tayyor buyumlar	7,1	6,9	92,0	96,8	7,7	5,7
Xizmatlar	0,8	1,2	148,6	153,1	0,8	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,0 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**27,6 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**59,6 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,7 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	62 647,6	189,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2,5	3,0
Sabzavotlar va mevalar	9 197,5	161,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	16,9	126,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	86,1	43,0 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,8	16,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 014,6	54,0
Qog‘oz massasi va makulatura	1 307,8	60,8
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 446,3	107,5
Birlamchi shakldagi bo‘lmagan plastmassalar	1 441,6	83,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	110,7	2,1 m.


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25 478,6	101,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 985,2	121,3
Cho'yan va po'lat	741,3	290,7 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	3 089,7	55,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,8	0,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 463,9	121,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6 197,9	104,9
Har xil tayyor buyumlar	302,9	68,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	346,6	121,6

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga **30,6** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **25,2** % ni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **94,1** % ni tashkil etdi.



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	14 438,8	15 889,6	58,9	110,0	12	6
Turkiya	8 113,4	8 108,6	2,2 m.	99,9	7	7
XXR	21 013,6	13 675,2	148,9	65,1	8	11
Qozog'iston	4 506,3	10 266,6	82,1	2,2 m.	13	2
Afg'oniston	33 737,1	62 616,4	106,5	185,6	9	3
Qirg'iz Respublikasi	709,7	833,6	31,1	117,5	14	5
Tojikiston	4 604,2	2 384,2	5,5 m.	51,8	4	12
BAA	286,2	68,7	21,1 m.	25,6	2	13
Pokiston	1 533,1	2 491,5	78,0	162,5	11	4
Niderlandiya	42,6	0,0	0,0	0,0	16	16
Eron	740,9	588,0	24,8 m.	79,4	1	8
Belarus	183,4	178,5	4,5 m.	97,3	5	9
Polsha	29,8	850,8	2,5	28,5 m.	15	1
Ozarbayjon	404,6	184,7	2,2 m.	45,7	6	14
Turkmaniston	339,0	77,9	107,4	23,0	10	15
Buyuk Britaniya	-	96,1	0,0	0,0	17	17
AQSH	69,1	57,7	10,3 m.	83,5	3	10





## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>121,3</b>	<b>131,3</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	11,9	194,3	9,8
Guliston t.	4,5	63,5	3,7
Mirzaobod t.	7,3	79,2	6,0
Oqoltin t.	1,1	189,4	0,9
Sardoba t.	1,4	116,3	1,2
Sayxunobod t.	10,2	99,1	8,4
Sirdaryo t.	25,2	115,5	20,7
Xovos t.	3,5	68,2	2,8
Guliston sh.	7,4	98,3	6,1
Shirin sh.	0,5	0,0	0,4
Yangiyer sh.	48,0	2,1 m.	39,5

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **39,5** % bilan **48,0** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,5** % bilan **0,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida **20,1** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **61,2 %** ga yoki **3,5** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**18,1 %**), Pokiston (**24,0 %**), Qozog'iston (**31,7 %**), hamda XXR (**14,9 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **9,2 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **61,4 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **7,6 %** ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-aprel, qiymati)

<p><b>Pomidor</b></p> <p>1 242,2 ming. AQSH dollari</p> <p>386,5 tonna</p> 	<p><b>Karam</b></p> <p>1 178,9 ming. AQSH dollari</p> <p>8 616,5 tonna</p> 	<p><b>Olma</b></p> <p>23,3 ming. AQSH dollari</p> <p>69,9 tonna</p> 	<p><b>Piyoz</b></p> <p>1 093,5 ming. AQSH dollari</p> <p>2 695,6 tonna</p> 
<p><b>Uzum yangi yoki quritilgan</b></p> <p>439,8 ming. AQSH dollari</p> <p>405,7 tonna</p> 	<p><b>Grek yong'og'i</b></p> <p>117,9 ming. AQSH dollari</p> <p>36,4 tonna</p> 	<p><b>Bodring</b></p> <p>147,8 ming. AQSH dollari</p> <p>191,9 tonna</p> 	<p><b>Limon</b></p> <p>8,1 ming. AQSH dollari</p> <p>11,2 tonna</p> 



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-aprel)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	3 001,1	1 669,1	18,1
 Pokiston	930,8	2 203,9	24,0
 Qozog'iston	12 672,1	2 917,6	31,7
 XXR	1 908,0	1 373,8	14,9
 Afg'oniston	420,2	241,2	2,6
 Belarus	61,3	178,5	1,9
 Tojikiston	713,2	312,8	3,4
 Boshqa davlatlar	365,1	300,6	3,3

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **31,7 %**) tashkil qilmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **164,6** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **87,8** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**16,0** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**48,6** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**18,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **-22,8** mln. AQSH dollariga kamaydi va **164,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>187,4</b>	<b>164,6</b>	<b>136,6</b>	<b>87,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	71,2	79,9	156,0	112,2	38,0	48,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,9	5,5	4,5 m.	94,2	3,1	3,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,5	6,5	8,3	185,5	1,9	4,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	5,2	134,6	24,8 m.	0,1	3,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	29,4	29,9	2,4 m.	101,9	15,7	18,2
Sanoat tovarlari	7,2	7,7	72,4	107,0	3,8	4,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	67,7	26,4	85,0	38,9	36,1	16,0
Turli xil tayyor buyumlar	2,3	2,4	80,2	104,9	1,3	1,5
Boshqa tovarlar	0,0	0,6	-	0,0	0,0	0,5



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	73 315,2	117,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	32,1	40,1
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	3 903,6	168,7
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 919,3	77,8
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	3 252,4	140,4
Probka va yog'och-taxtalar	1 152,3	102,2
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	50,9	13,2
Ko'mir, koks va briketlar	6 494,6	2,0 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	5 142,8	24,8 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	8,6	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	595,9	85,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	15 475,2	91,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 717,2	165,1
Bo'yaydigan va terini oshlovch moddalar va bo'yoqlar	6 363,7	123,4


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	1 819,8	176,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 454,5	160,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	931,0	91,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	2 204,2	69,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	288,8	54,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	16 913,1	29,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4 857,9	77,2
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 344,4	153,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	933,9	132,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	570,3	71,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	788,9	3,0 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	62,4	17,2



2023- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **68,0 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **25,3 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



2023- yil yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyati **63** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Germaniya, Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Niderlandiya) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### SIRDARYO VILOYAT I IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)







## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Germaniya	3 199,5	1 913,4	159,1	59,8	12	12
Rossiya	11 430,6	23 233,6	17,5	2,0 m.	16	4
XXR	28 275,0	31 611,0	112,4	111,8	15	7
Qozog'iston	70 558,0	85 248,3	128,1	120,8	13	6
Turkiya	5 659,9	5 925,2	192,0	104,7	11	8
Koreya Respublikasi	6 630,1	575,8	26,8 m.	8,7	1	16
Litva	673,9	0,3	5,9 m.	0,0	4	18
Fransiya	440,2	1 142,6	3,5 m.	2,5 m.	6	2
Niderlandiya	560,7	1 294,5	8,0	2,3 m.	17	3
Turkmaniston	4 087,7	0,0	2,3 m.	0,0	10	19
Hindiston	614,3	412,2	3,3 m.	67,1	7	11
Belarus	394,8	345,9	3,1 m.	87,6	8	10
Italiya	43 174,8	3 242,5	19,2 m.	7,5	2	17
Buyuk Britaniya	4,3	45,4	8,0	10,0 m.	18	1
Eron	2 349,6	613,4	2,3 m.	26,1	9	15
Polsha	249,4	249,3	7,3 m.	100,0	3	9
AQSH	-	45,5	-	-	20	20
Estoniya	260,5	80,3	117,7	30,8	14	14
Avstrya	1 006,1	388,5	6,6	38,6	19	13
Qirg'iz Respublikasi	1 903,2	2 309,8	4,8 m.	121,4	5	5



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>164,6</b>	<b>87,8</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	10,9	106,3	6,6
Guliston t.	0,3	29,2	0,2
Mirzaobod t.	2,5	133,3	1,5
Oqoltin t.	1,0	177,5	0,6
Sardoba t.	0,8	32,2	0,5
Sayxunobod t.	7,9	68,4	4,8
Sirdaryo t.	57,1	63,8	34,7
Xovos t.	16,2	6,3 m.	9,8
Guliston sh.	15,8	69,2	9,6
Shirin sh.	-	7,7	-
Yangiyer sh.	52,2	117,1	31,7

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollari



**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSH dollari



Viloyat import tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumanida **34,7 %** bilan **57,1** mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **26,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **38,9** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **16,0** % ni tashkil qildi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel)




2023- yil yanvar-aprel oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **41,3** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Fransiya — **1,0** mln. AQSH dollari (**3,8** %), XXR — **15,6** mln. AQSH dollari (**59,2** %) va Turkiya – **4,8** mln. AQSH dollari (**18,1** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **7,7** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,0** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **4,7** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

3,2 mln. AQSH doll.  
ulushi – 42,5 %

1,6 mln. AQSH doll.  
ulushi – 21,1 %



Rossiya Federasiyasi



XXR

1,7 mln. AQSH doll.  
ulushi – 22,0 %



Qozog'iston



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (**2,2** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**1,5** mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (**0,9** mln. AQSH dollari), rangli metal (**0,3** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.